

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAHMUDOVA MAFTUNA HAMZA QIZI

**MEDIASAVODXONLIK — INTERNET OAVDAGI FEYK VA
DEZINFORMATSIYALARDAN HIMOYA QILISH VOSITASI SIFATIDA**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Mahmudova Maftuna Hamza qizi

Mediasavodxonlik-Internet OAVdagi feyk va
dezinformatsiyalardan himoya qilish vositasi sifatida..... 3

Махмудова Мафтуна Хамза кизи

Медиаграмотность как средство защиты от фейков
и дезинформации в интернет-СМИ..... 27

Makhmudova Maftuna Khamza kizi

Media Literacy as a Means of Protection Against Fakes
and Disinformation in the Internet Media..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MAHMUDOVA MAFTUNA HAMZA QIZI

**MEDIASAVODXONLIK — INTERNET OAVDAGI FEYK VA
DEZINFORMATSIYALARDAN HIMOYA QILISH VOSITASI SIFATIDA**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2678 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Qosimova Nargis Sunnat qizi
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: Mamatova Yakuta Muhammedjanovna
filologiya fanlari doktori, professor
Nuritdinova Madina Choriyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «26» aprel soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (998 71) 230-12-91, (99871) 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «13» aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil «13» aprel dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi)



G.X. Baklyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

X.A. Saidov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mediamakonida zamonaviy texnika va texnologiyalar rivojlanishi natijasida axborot oqimining yanada jadallashuvi, kishilarning informatsiya almashinuv jarayoni yengillashib borayotgan bir paytda jurnalistika sohasining ilg'or taraqqiy etishi jadallashmoqda. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash, ongli tarzda ishonchli va to'liq axborot olish huquqini amalga oshirish, feyk va dezinformatsiyaga qarshi kurashishda mediasavodxonlikning dolzarbligi hamda zarurati, xususan, yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo veb-industriya jadal rivojlanib, inson hayotining barcha sohalariga kirib borishi, global tarmoqda shiddatli axborot xuruji va siyosiy, iqtisodiy hamda madaniyatlararo kommunikatsiyaning yanada o'sishi omillari, medianing axborot-psixologik ta'sirining oshishi tamoyillarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy media muhitda axborot manipulyatsiyasidan himoyalani, axborot xavfsizligini ta'minlashda media va axborot savodxonligining ahamiyati, raqamli texnologiyalar, kiberxavfsizlik muammosi, axborotni filtrlash va tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirish, feyk yangiliklarni semantik va tarmoqli tahlil qilish, ritorik tuzilishi va nutqdagi ko'rinishini baholash, shuningdek, jamoatchilik orasida ommalashib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelish sabablarini ilmiy asoslash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlashda mediasavodxonlikni oshirish konstruktiv-psixologik asoslarini shakllantirish, milliy-ma'naviy hamda madaniy meros vositasi bo'lib, shaxsning **feyk va dezinformatsiyaga qarshi** o'z-o'zini himoyalashi, ya'ni psixologik xavfsizligini konstruktiv mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. "Eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz.domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod-Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir"¹. Shunga ko'ra Internet OAVda feyk va dezinformatsiyaga qarshi shaxsning mediasavodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida", "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida", Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-

¹ Мирзиёев Ш. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабати билан мамлакат Президентининг соҳа вакилларига табриги. 27.07.2019. //uza.uz/

tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-707-son “Butunjahon internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu muammo O‘zbekiston va xorijlik pedagogika, axborot texnologiyalari va jurnalistika sohasidagi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. O‘zbekistonda ommaviy mediata’lim va mediasavodxonlik bo‘yicha qator tadqiqotchilar ilmiy ish olib borishgan. X.Do‘stmuhammad, F.A.Mo‘minov, N.S.Qosimova, K.F.Ismailova, A.N.Nurmatov, M.Mirsagatova, N.Murotova, N.Toshpo‘latova, B.Namozov, M.Fayziyeva, Sh.Sharofiddinov, S.Jumanova² va boshqalarning ilmiy risola hamda maqolalarida axborotning fenomeni, falsafiy asoslari, ijtimoiy axborot tasnifi, mamlakatimizda mediata’limning zarurati, mediasavodxonlikning ilk tushunchalari, feyk xabarlarining yuzaga kelishi, yoshlarda axborot almashinuvi madaniyatining mazmuni va rivojlantirish istiqbollari kabi masalalar o‘rganib chiqilgan.

Rus tadqiqotchilari O.Y.Voronova, A.S.Trushin S.Jabotinskaya, M.O.Zyanova, S.N.Ilchenko, O.Issers, M.A.Komissarov, Y.G.Lebedeva, A.V.Manoylo, M.D.Molina, S.S.Raspopova, A.Smirnov, A.P.Suxodolov, A.N.Tuleubekova, A.V.Fedorov, L.M.Zemlyanova, A.Korochenskiy, M.M.Pavlikova va boshqalar³ axborot xavfsizligida tahdid manbalarini tadqiq etgan.

² Дўстмухаммад Х. Ахборот мўъжиза, жозиба, фалсафа. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. — В. 2018; Маматова Я.М., Сулайманова С.Н. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма. – Т.: Extremum-press, 2015. — В.28; Медиа ва ахборот саводхонлиги. Педагоглар учун методик қўлланма. Тузувчилар: Б.Намазов, М.Файзиёва, Ф.Джалилов. – Т.: Baktria press, 2018. — В. 41; Муротова Н.Ф., Тошпўлатова Н.К., Алимова Г.Б. Fake news: медиада дезинформация. Журналистика ва коммуникация йўналишлари талабалари учун қўлланма. – Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. — В. 14; Исмаилова К.Ф. Медиаобразование в Узбекистане: тенденции, проблемы, перспективы // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2016. – № 6. – С. 122-127; Старуш М. Авторское “Я” в публицистическом произведении. Дисс... канд. филол наук. – М.: МГУ, 1991; Қосимова Н. Медиаэкология: ахборий муҳитнинг софлиги масалалари // <http://nargis.uz/?p=2573>. — В.185-189; Раҳимова Ш. Ёшларда ахборот алмашинуви маданиятини ривожлантириш истикболлари // Infolib, 2020. – № 1; Мо‘minov F., Baratov Sh. va boshqalar. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. – Т.: Yangi asr avloidi, 2013. — В.58.

³ Воронова О.Е., Трушин А.С. Функции фейков в современных информационных войнах // <https://histrf.ru/magazine/article/>; Жаботинская С. Исследователи определили семь типов фейковых новостей // <https://naked-science.ru/article/media/issledovатели-opredelili-sem-tipov-fejkovyh-novostej>; Зырянова М.О. Способы противодействия распространению фейковой информации // cyberleninka.ru. – С. 3; Ильченко С.Н. Как нас обманывают СМИ: манипуляция информацией. – Питер, 2019. – С. 295; Иссерс О. Медиафейки: между правдой и мистификацией Р., 2014. – № 2. – С. 118; Комиссаров М.А. Проблема распространения недостоверной информации в СМИ и социальных медиа / Тезисы к выступлению на 20-й Центрально-Азиатской Конференции СМИ “Будущее журналистики” // <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media>; Лебедева Е.Г. Фейковые новости как инструмент манипулятивного воздействия в медиасреде //

Bir qator Germaniyalik olimlar mediasavodxonlikni oldini olishda mediata'limning o'rni xususida S.Aufenanger, M.Warschauer, D.Sus, B.Bachmeier, D.Spanhel⁴ kabi olimlar risola va nomzodlik dissertatsiyalarida so'z yuritadi.

Media-axborot savodxonlikning zamonaviy talqini bo'yicha D.Oberg, S.Ingvaldsen, M.Leaning, A.Grizzle, P.Moore, M.Dezuanni, S.Asthana, C.Wilson, F.Banda, Ch.Onumah, J.Singh, P.Kerr, E.Hamburger, A.Silverblatt, J.Ferry, B.Finan, N.Stevenson⁵ kabi olimlar izlanishlar olib borgan.

Ushbu tadqiqotlarda mediasavodxonlikning internet tarmoqlarida kiber terrorizmga, feyk va dezinformatsiyaga qarshi kurashishdagi o'rni va ahamiyati masalalari maxsus tarzda o'rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-204-4-5 «Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish» mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Internet OAVda tarqalayotgan feyk va dezinformatsiya ko'rinishlarini aniqlash, yo'nalishlarini belgilash va ularning oldini olishda mediasavodxonlikning o'rni hamda ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy jamiyatda mediasavodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish;

Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн., 2021. – С. 3 // URL: <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/>; Манойло А.В. “Фейковые новости” как метод перехвата информационной повестки в условиях современного информационного противоборства // Культурная политика, 2019. – № 1. Официальный сайт “История.рф”. – С. 4. URL: <https://histrf.ru/magazine/release>; Молина М.Д., Сундар С.Ш., Тай Ле, Донгвон Ли. “Фейковые новости” – это не просто ложная информация: концепция экспликации и таксономии онлайн-контента; Назайкин А.Н. “Современное медиапланирование”. Учебное пособие. – М.: Солон-пресс, 2016. ISBN: 978-5-91359-210-1. – С. 86; Павликова М.М. Парадоксы информационного общества // Вестник МГУ, 2008. Серия 10. Журналистика. – № 1. – С. 35; Распопова С.С., Богдан Е.Н. Фейковые новости: природа происхождения // Вестник ЧелГУ, 2017. – № 11. – С. 407. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/feykovye-novosti-priroda-proisshozhdeniya>; Смирнов А. “Глубокие фейки”: сущность и оценка потенциального влияния на национальную безопасность // Свободная мысль, 2019. – № 5. – С. 70; Суходолов А.П. Феномен “фейковых новостей” в современном медиапространстве / Евроазиатское сотрудничество, гуманитарные аспекты: материалы Международной конф. – Иркутск: Изд-во Байкальского гос. ун-та, 2017. – С. 102; Тулеубекова А. Н. Ряд пользователей соцсетей арестованы за распространение фэйков про коронавирус // Сетевое издание “Zakon.kz”. URL: <https://www.zakon.kz/5006009-ryad-polzovateley-sotssetey-arestovany.html>.; Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. – Таганрог: Изд-во Кучма, 2004. – С. 304.

⁴ Aufenanger S. Neue Medien als padagogische Herausforderung // In: Praktische Theologie, 1996. N 31. – P. 261; Bachmair B. Cosa fa TV ai bambini? Edutrice elle di ci. – Torino: Leumann, 1997. – P. 27; Suss D., Bernhard E. Armin Schlienger, A. 2002. Media Education in Switzerland – Determining its Position. In: Hart A. / Suss D. (Eds.) Media Education in European Countries. Zurich: Swiss Federal Institute of Technology // <http://e-collection.ethbib.ethz.ch/show?type=bericht&nr=24>; Warschauer M. Millennialism and media: Language, literacy, and technology in the XXI century / M.Warschauer // AILA Review, 2019. – № 14. – P. 49.

⁵ Oberg D., Ingvaldsen S. Media and Information Literacy in Higher Education. – Chandos Publishing, 2016. – P.176; Leaning M. Integrating Media and Information Literacy. *Media and Information Literacy*, 2017. – P. 12; Grizzle A., Moore P., Dezuanni M., Asthana S., Wilson C., Banda F., Onumah Ch. Media and information literacy: policy and strategy guidelines. – France, 2013. – P. 196; Singh J., Kerr P., Hamburger E. Media and information literacy: reinforcing human rights, countering radicalization and extremism. – France, 2016. – P. 314; Silverblatt A., Ferry J., Finan B. Approaches to Media Literacy. – Armonk, New York-London: M.E.Sharpe, 1989. – P. 281; Stavenon N. Understating media cultures: Social Theory and mass communication, 2012. – P.212.

mediasavodxonlik va mediata'lim mohiyati, uning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va tahlil qilish;

internet OAVda feyk va dezinformatsiyaga oid ma'lumotlarni paydo bo'lish sabablarini o'rganish;

internet OAVda ommalashgan feyk va dezinformatsiya yo'nalishlarini aniqlash hamda ilmiy-nazariy tasniflash;

feyklarga qarshi kurashishda onlayn instrumentlarini tadqiq qilish;

onlayn makonda freyming va unga qarshi kurashishning samarali usullarini tahlil etish;

axborotlashgan jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlashda mediasavodxonlikning o'rnini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Internet OAVda "Antifeyk.uz", "Kun.uz", "Zamin.uz" saytlari; "Telegram yulduzlari", "Onlayn O'zbekiston" telegram kanallarida tarqalgan feyk va dezinformatsiyaga oid ma'lumotlardir.

Tadqiqotning predmetini axboriy va kiberxavflar mavjud bo'lgan global axboriy-psixologik makonda murakkab hamda keskin vaziyat, media iste'molidagi o'zgarishlar fonida dolzarblashib borayotgan OAVda feyk va dezinformatsiyaga qarshi kurashda mediasavodxonlik instrumentlari hamda usullarini o'rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda quyidagi nazariy va empirik metodlar qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, tarixiy-qiyosiy, tarkibiy-tipologik), tahlil (analiz, sintez, analogiya, modellashtirish); sotsiologik (kuzatuv, anketa so'rovi), prognostik (fikriy eksperiment, mustaqil baholarni umumlashtirish va boshq.), usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

OAV va sotsial tarmoqlarning har qanday ko'rinishida uzatilayotgan mediakontentlarning "feyk" va soxta ma'lumotlardan farqlashda – mediata'limni intensiv tashkil etishning tizimli yondashuvlari asosida mediasavodxonlikning zamonaviy konsepsiyasi, innovatsion ta'lim dasturlari, texnologik yechimlarga asoslangan empirik tadqiqot usullari takomillashtirilgan;

OAV va internet resurslarining sensatsiya va eksklyuzivlikka intilishi va ularning asosiy kontentini dezinformatsion xabarlar tashkil etishining oldini olishda hamda axborot xavfsizligini ta'minlash, informatsion tahdidlarga qarshi kurashishda ommaviy auditoriyaning "yolg'on" ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini yanada oshirish orqali jamoatchilik nazoratini o'rnatish strategiyasini shakllantirish zarurati dalillangan.

axborot savodxonligi (information literacy) axborot bilan tanishish, tahlil va sintez qilishni, mediasavodxonlik (media literacy) esa mediamatndan foydalanish va uni tushunish, mediamadaniyat asoslarini bilish, hususan, gumanitar kibertexnologiyalar, media kommunikatsiyalar hamda media xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish orqali memetika, media psixologiyasi hamda zamonaviy jamiyat aksiologiyasini rivojlantirishda muhim strategik, potensial paradigma ishlab chiqishni taqozo etishi asoslangan;

onlayn makonda freyming va unga qarshi kurashish, zamonaviy OAVni feyk va dezinformatsiyadan himoyalashda pre-fakt usulini qo'llash, bunda nazoratdan

oldin, tekshirilayotgan faktlarning konteksti va asosiy ma'lumotlariga alohida e'tibor qaratish zarurati hamda mediasavodxonlikning o'rnini oshirishga qaratilgan taklif, tavsiya va konstruktiv mexanizm ishlab chiqishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mediasavodxonlikning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalarning o'ziga xosliklari ko'rsatib o'tilgan; feyk va dezinformatsiyaga qarshi mediasavodxonlikning asosiy vazifalari belgilanganligida va unga qarshi kurashishda milliy hamda xalqaro tajribadagi bugungi holat tahlil qilinganida; feyk va dezinformatsiyaga qarshi kurashishning ta'limiy mexanizmi "Mediasavodxonlik asoslari" darsligi asosida ishlab chiqilgan;

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ko'magi bilan "UzSWLU.uz" telegram kanalida talabalarning mediasavodxonlik darajasini aniqlash maqsadida 1000 nafar respondent ishtirokida mediamahsulot iste'moli xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnomma o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan nazariy ma'lumotlar uchun ilmiy adabiyotlar, jumladan, tan olingan nufuzli ilmiy bazalarda havolalangan jurnallardagi eng so'nggi ilmiy materiallarga murojaat etilgani, amaliy xarakterdagi ma'lumotlarning muntazam sotsiologik kuzatuv va 1000 nafar respondent ishtirokidagi sotsiologik so'rov orqali olingani, ishonchli internet manbalari, tasdiqlangan statistik ma'lumotlardan foydalanilgani, saytlarga murojaat vaqtining berilishi, tahlillar, ilmiy-amaliy xarakterdagi xulosalarning qiyosiy metodlar bilan asoslangani, modellashtirishda fikriy eksperiment va chog'ishtirish metodi qo'llangani hamda ilmiy fikr hamda takliflarning amaliyotda qo'llangani, ularning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mediani tushunish va axborotni baholash yo'nalishidagi ilmiy qarashlarning miqyosi kengaytirilganligi, axborot savodxonlik, mediasavodxonlik, raqamli savodxon tushunchalarining mazmun-mohiyati milliy nuqtai nazardan ta'riflangani, O'zbekistonda mediata'lim va mediasavodxonlik talqin etilgan hamda o'zbekistonlik yoshlarning mediamahsulot iste'moli, axborotning oshib borayotgan ta'siri ilmiy tahlil qilinganligi, yangi tadqiqotlarga yo'l ochgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda olg'a surilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar amaliyotchi jurnalistlar, muharrirlar, axborot va PR-xizmatlar xodimlari, OTM jurnalistika fakultetlari bakalavr va magistratura talabalari, OAV, PR ekspertlari va blogerlarga mo'ljallangan O'zbekiston jurnalistlarini qayta tayyorlash markazi tomonidan, "Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda yoshlarning mediasavodxonlik ko'nikmalarini oshirish" loyihasi dosirasida "Jurnalistlar va blogerlar uchun mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun qo'llanma" yaratishda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi.

Internet OAVda tarqalayotgan feyk va dezinformatsiya ko'rinishlarini aniqlash, yo'nalishlarini belgilash va ularning oldini olishda mediasavodxonlikning o'rni hamda ahamiyatini ochib berishni tadqiq qilish asosida:

OAV va sotsial tarmoqlarning har qanday ko‘rinishida uzatilayotgan mediakontentlarning “feyk” va soxta ma’lumotlardan farqlashda – mediata’limni intensiv tashkil etishning tizimli yondashuvlari asosida mediasavodxonlikning zamonaviy konsepsiyasi, innovatsion ta’lim dasturlari, texnologik yechimlarga asoslangan empirik tadqiqot usullari takomillashga oid xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Assalom O‘zbekiston!”, “Munosabat” tok-shoularini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yil 21-dekabrda 02-13-2110-son ma’lumotnomasi). Natijada, feyk va dezinformatsiyalarning ko‘payishi hamda tarqalishi sabablari yuzasidan bildirilgan nazariy va amaliy fikrlar ko‘rsatuvlarning mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

OAV va internet resurslarining sensatsiya va eksklyuzivlikka intilishi va ularning asosiy kontentini dezinformatsion xabarlar tashkil etishining oldini olishda hamda axborot xavfsizligini ta’minlash, informatsion tahdidlarga qarshi kurashishda ommaviy auditoriyaning “yolg‘on” ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini yanada oshirish orqali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish strategiyasini shakllantirish zaruratiga oid ilmiy takliflardan “Sport” teleradiokanalidagi ko‘rsatuv va informatsion eshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Sport teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yil 21-dekabrda 02-02-1043-son ma’lumotnomasi). Natijada, dasturlar feyk va dezinformatsiyadan himoyalashda OAV xodimlari uchun mediasavodxonlikning muhim usullari haqidagi tahliliy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

axborot savodxonligi (information literacy) axborot bilan tanishish, tahlil va sintez qilishni, mediasavodxonlik (media literacy) esa mediamatndan foydalanish va uni tushunish, mediamadaniyat asoslarini bilish, hususan, gumanitar kibertexnologiyalar, media kommunikatsiyalar hamda media xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish orqali memetika, media psixologiyasi hamda zamonaviy jamiyat aksiologiyasini rivojlantirishda muhim strategik, potensial paradigma ishlab chiqishga oid xulosalardan Jizzax viloyati “Qalb nuri” ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qo‘llab quvvatlash markazi tomonidan mediasavodxonlikni o‘qitish hamda oshirishning zamonaviy metod texnologiyalariga oid seminar-treninglarda foydalanilgan (Jizzax viloyati “Qalb nuri” ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash markazining 2022-yil 26-dekabrda 01/75-son ma’lumotnomasi). Natijada, seminar-treninglar feyklarga qarshi kurashishda onlayn instrumentlar va dasturlarni rivojlantirish, texnologik ta’limiy dasturlar borasidagi fikrlar bilan takomillashgan;

onlayn makonda freyming va unga qarshi kurashish, zamonaviy OAVni feyk va dezinformatsiyadan himoyalashda pre-fakt usulini qo‘llash, bunda nazoratdan oldin, tekshirilayotgan faktlarning konteksti va asosiy ma’lumotlariga alohida e’tibor qaratish zarurati hamda mediasavodxonlikning o‘rnini oshirishga qaratilgan taklif, tavsiya va konstruktiv mexanizm ishlab chiqishga qaratilgan amaliy tavsiyalarga xulosalardan “Ekolog.uz” jamoat birlashmasi sayti va ekolog.uz. telegram kanallarida “ekofaktcheking” rukni ostida berilgan materiallarda hamda sayt uchun xabarlar tayyorlashda foydalanilgan (Ekolog.uz jamoat birlashmasi

№01-51 2023-yil 1-avgustdagi ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur xabarlar jurnalistikada jamoatchilik fikrini shakllantirishda manipulyatsiyaga va turli fikrlar g'oyasiga qarshi immunitetni oshirishga ko'maklashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 2 ta xalqaro, 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanda bayon etilgan hamda abrobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan, OAK doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish to'qqiz faslni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 149 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Axborotlashgan jamiyatda mediasavodxonlikning nazariy-metodologik asoslari”** deya nomlangan birinchi bobining birinchi “Mediasavodxonlik: asosiy tushunchalar va konseptual holatlar talqini” faslida mediasavodxonlik bilan bog'liq asosiy tushunchalar va konseptual holatlar talqini, mediasavodxonlik mediata'limning maqsadi va natijasi sifatida ekanligi, feyk va dezinformatsiyaning bugungi kunda global muammolar qatoridaligi atroflicha tahlilga tortilgan. “Axborot asri” deya ta'rif berilgan XXI asrda insoniyat hayotida axborot va unga munosabat tushunchasi tubdan o'zgardi. Zamonaviy jamiyatning turli jabhalarini, shu jumladan, faoliyati bevosita axborot olish va tarqatish bo'lgan jurnalistikani ham kompyutersiz, internetsiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Axborot jamiyati g'oyasining asoschilari bo'lmish G.Maklyuen, D.Bell, E.Toffler kabi olimlar insoniyatning yangi davrga o'tishida axborot texnologiyalari asosiy o'rin egallashini e'tirof etishgan. Ushbu jarayonda ogohlik, axborotga egalik qilish yoki uni boshqarish har qanday harbiy tadbirga qaraganda muhimroq ahamiyat kasb etadigan bo'ldi. Bu esa jurnalistikaning tom ma'nodagi “to'rtinchi hokimiyat” darajasiga ko'tarilishini talab qilayotgan real voqelikdir. Millatlar va mintaqalararo munosabatlarda diplomatik doira vakillari qatorida jurnalist kadrlarning muhim o'rni borligi endilikda inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir⁶.

“Mediasavodxonlik mediata'limning strategik maqsadi sifatida” deb nomlangan ikkinchi faslida asosiy tushunchalarni ilmiy-nazariy jihatlari atroflicha

⁶ Мухаммадсиддиқов М.М. Халқаро минтақашунослик. – Тошкент, 2017. – Б. 18.

ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi. Demokratik jamiyat qurish hamda mamlakat rivojlanishida axborotga egalik qilish hayot kabi muhimdir. Fuqarolar so‘z erkinligi hamda ijtimoiy axborotdan foydalanish huquqiga ega. Media hamda boshqa axborot yetkazib beruvchilar (kutubxona, arxiv, Internet va h.k.) har bir fuqaroning axborotdan erkin foydalanish huquqini ta‘minlanishga yordam beradi⁷. “Zamonaviy medialarning asosiy jihatlariga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Mazkur atamaga aynan shunday tavsif [www. edu. jobsmarket.ru](http://www.edu.jobsmarket.ru) saytida keltirilgan”⁸. “Media – ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli hamda serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir”⁹.

“Mediata‘lim” so‘zi MDH davlatlari hududiga o‘tgan asrning 80-yillarida kirib keldi. Inglizcha “media education” so‘zini shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilish yaramaydi. Chunki u matn tarkibidagi o‘rniga ko‘ra turli ma‘nolarda qo‘llanilishi mumkin. Mediata‘limning mohiyatini tushunish uchun, birinchi navbatda, uning tarkibiy qismlarini komponentli o‘rganish lozim. “Media” atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib “o‘rta-oraliq”, “vositachilik”, “vositachi” degan ma‘nolarni anglatadi. “Media”ning asosiy vazifasi turli guruh, shaxslar uchun har qanday mazmundagi mahsulotni yetkazib berish o‘rtasidagi muloqotni amalga oshirish vositadir. Media keng ma‘noda ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, kitoblar, televideniye, kabel tarmoqlari, radio, kino), shuningdek, har qanday ommaviy axborot vositalari uzatayotgan ma‘lumotlar (harflar, audio va video yozuvlar, CD) hamda aloqa tizimlari (telegraf, telefon, pochta, kompyuter tarmoqlari) barchasini qamrab oladi¹⁰.

“Zamonaviy medianing global muammolari: feyk va dezinformatsiya” deya nomlangan uchinchi faslida “feyk” tushunchasini keng ma‘noda tadqiqotchilar moddiy va nomoddiy¹¹ toifalarga ajratadilar. Moddiy feyklarga tovar belgilari, texnologiyalar, dori-darmonlar, san‘at asarlari va boshqalarni soxtalashtirish kiradi. Nomoddiylariga ijtimoiy tarmoqlarda (sotsial tarmoqlar, messenjerlar), Internet resurslaridan foydalangan holda va ba‘zi OAVda qasddan tarqatiladigan yasama, soxta, yolg‘on yangiliklar kiradi. Shuningdek, “ijtimoiy tarmoqlarda feyk akkauntlar, montaj qilingan foto va videotasvirlar va b. nomoddiy feyklar”¹² ham ular sirasiga kirishi mumkin.

Mediasavodxonlik insonga televideniye, radio, video, kino, matbuot, internetning axborot sohasi imkoniyatlaridan faol foydalanishga, media madaniyati tilini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

⁷ Намазов Б., Файзиева М., Шарофаддинов Ш. Медиа ва ахборот саводхонлиги. Ўқув қўлланма. – Б. 43.

⁸ Намазов Б., Файзиева М., Шарофаддинов Ш. Медиа ва ахборот саводхонлиги. Ўқув қўлланма. – Б. 47.

⁹ www.advesti.ru/glossary/desk/1952

¹⁰ Варганова Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран: глоссарий // Медиаэкономика зарубежных стран. – М.: Аспект Пресс, 2003. – С. 2.

¹¹ Зырянова М.О. Способы противодействия распространению фейковой информации // cyberleninka.ru.


¹² Зырянова М.О. Способы противодействия распространению фейковой информации // cyberleninka.ru.

Mediata'lim, mediasavodxonlik yangicha shaxs madaniyatini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Samarali tashkil qilingan media darslar ta'lim va tarbiyaning an'anaviy shakllarini saqlab qolish, ularni yangi axborot muhitiga moslashtirish va shiddatli o'zgaruvchan dunyoda yoshlarni o'zini anglash uchun yangi imkoniyatlarni izlab topishlariga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda feyk ma'lumotlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu hodisaning ijtimoiy xavfliligi to'g'risida aniq xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Tahlil qilingan ma'lumotlarning aksariyati Qo'shma Shtatlardagi vaziyat bilan bog'liq, boshqa mamlakatlar esa hali ham to'liq o'rganilmagan. Hatto feyk ma'lumotlarning ta'rifi ham savollar uyg'otadi va tadqiqotlardan turlicha bo'lishi mumkin. Boshqa mamlakatlardagi empirik tadqiqotlar ushbu mavzu bo'yicha keyingi ishlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Internet OAV kontekstida feyk va dezinformatsiyaga qarshi kurashish usullari va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi “Internet OAV da feyklarning yuzaga kelish va ularning tarqalish omillari” faslida internet OAVda feyklarning tarqalish tendensiyalari, ijtimoiy tarmoqlardagi feyk axborotning turlari, ko'rinishlari va ularning ommalashuvi, feyklarga qarshi kurashishda Internet OAV matnlari hamda ijtimoiy tarmoqlarning kontent xususiyatlari bilan bog'liq muammolar o'rganilgan.

Bugungi kunda feyk yangiliklarning tarqalish ko'lami kun sayin ortib bormoqda. Ushbu xabarlarining rivojlanish tendensiyasi “gitnux.com” sayti tomonidan oxirgi 4 yillik statistik natijalariga ko'ra aniqlangan:



1-rasm. Feyk yangiliklarning 2020-2023-yillarda rivojlanish ko'rsatkichlari ¹³.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarda AQSH faktchekrlari tomonidan feyk yangiliklarning rivojlanish tendensiyasini o'rganish yuzasidan taxminiy xulosalari keltiriladi. Mazkur jadvalga ko'ra, 2020-yilda 20 %, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich pandemiya sabab yuqorilaydi, ya'ni 30 %, 2022-yilda rivojlanish dinamikasida tushish holati kuzatiladi 15 %. 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich Rossiya, Ukraina munosabatlariga oid ma'lumotlar hisobiga 35 %ga ko'tariladi.

¹³// Fake News: The Most Important Statistics// <https://blog.gitnux.com/fake-news-statistics/>

Shu nuqtai nazardan feyk va dezinformatsiyaga oid yangiliklarning rivojlanishi hamda tarqalish tendensiyasi va ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

XIII asrda "og'zaki nutq" usuli bilan tarqatilgan yolg'on ma'lumotlarni zamonaviy tadqiqotchilar "fake" yoki "fake-news" deb, atagan. "Fake" so'zi "Англо-русский синонимический словарь" (Ingliz-rus sinonimlari lug'ati) kitobida "soxta, qalbaki" degan ma'noni anglatadi. E.N.Shagalovning "Словарь новейших иностранных слов" (Eng yangi xorijiy so'zlar lug'ati)da ta'kidlanishicha, bu jargon neologizm bo'lib, "yolg'on, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, soxta, chalg'ituvchi" degan ma'noni anglatadi¹⁴. "Wikipedia" elektron qomusida "fake" atamasining ma'nosi "ijtimoiy axborot vositalarida va an'anaviy ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri ma'lumotlarning yolg'onligi yoki atayin tarqalishi" deya keltiriladi¹⁵. Shunisi e'tiborli-ki, ushbu tushuncha turli xil Internet-resurslari tomonidan manbaga havola qilmasdan faol ravishda qo'llaniladi. 2018-yil iyun oyida Rossiya Federatsiyasi Jamoat palatasi komissiyasi axborot hamjamiyatini rivojlantirish, OAV va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha "Internet tarmog'ida feyk ma'lumotlarni tarqalishi" bo'yicha davra suhbatini o'tkazdi, unda – "fake-news" jargon atamasi bilan umumiy qabul qilingan ta'rifni tushunish taklifi kiritildi, ya'ni bu ijtimoiy media va an'anaviy OAVda ma'lumotlarning yolg'onligi yoki noto'g'ri ma'lumotlarning atayin, moliyaviy yoki siyosiy foyda olish maqsadida, tarqatilishi"¹⁶. Yolg'on axborotning yana bir turi "information mistifikatsiya" iborasi hali aniq semantik ta'rifga ega emas. Ushbu so'z birikmasida asosiy atama "mistifikatsiya" tushunchasidir. A.P.Yevgeneva tomonidan tahrirlangan to'rt jildli "Словаря русского языка" (Rus tilining lug'ati)ning to'rtinchi nashri elektron versiyasiga ko'ra, bu atama fransuzcha "mystification" so'zidan kelib chiqqan. Misol uchun, "Словаря русского языка XVIII века" (XVIII asr rus tili lug'ati)da bu atama mavjud emas.

2017-yilda "Fake news" iborasi ingliz tilining izohli lug'atini tuzuvchilarga nazariy qarashlarida "Collins English Dictionary" iborasiga aylandi, chunki bu davrda uni ishlatish chastotasi 365 % 1 ga oshdi¹⁷. 2000-yilgacha feyk tushunchasi, asosan, vizual axborotga nisbatan qo'llanilgan. Bugungi kunga kelib quyidagi feyk turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- kompyuter dasturlari orqali qayta ishlov berilgan soxta fotosuratlar;
- mavjud videolavhalar asosida qayta montaj qilingan videoroliklar;
- matnli yolg'on xabarlar;
- boshqa odamlar nomidan ijtimoiy tarmoqlarda ochilgan sahifalar¹⁸.

¹⁴ Шагалова Е.Н. Словарь новейших иностранных слов / Е.Н.Шагалова. – Москва: АСТ-ПРЕСС, 2017. – С. 121.

¹⁵ <https://ru.wiktionary.org/wiki/%D1%84%D0%B5%D0%B9%D0%BA>

¹⁶ Головацкая О.Е. Информационная экспансия как скрытая угроза информационного пространства и инструмент целенаправленного воздействия на целевую аудиторию (варианты трактовки термина и негативные последствия) // Коммуникология, 2018. Том 6. – № 3. – С. 116.

¹⁷ Ильченко С.Н. Фейк как политический формат в современной медиасреде // Гуманитарный вектор. Серия: История, политология, 2015. – № 3 (43). – С. 98.

¹⁸ Қосимова Н.С. Зиддиятли вазиятларда журналистика. Ўқув қўлланма. – Т., 2019. – Б. 158.

“Ijtimoiy tarmoqlardagi feyk axborot turlari, ko‘rinishlari va ularning ommalashuvi” deb nomlangan ikkinchi faslda ijtimoiy tarmoqlarning axborot oqimi va ommalashuv oqibatlari feyk yangiliklar ko‘rinishida ochib beriladi. Xususan, feyklar doimo ziddiyatlar asosida yaratiladi. Jahonda sodir bo‘layotgan urushlar, diniy va milliy ziddiyatlar, ichki siyosiy nizolarning barchasining asosida yolg‘on xabarlar yotib, ularni kelib chiqishiga turtki bo‘ladi. Masalan, rangli inqiloblarning sodir bo‘lishida muxolifat va uchinchi siyosiy tomonlar mavjud hukumatning “asl basharasi”ni xalqqa ko‘rsatish maqsadida internet hamda OAV orqali feyk xabarlar tarqatishdi. Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi ziddiyatlar, Afg‘onistondagi kelishmovchiliklar, Suriyadagi nizolar, Iroqdagi urush yolg‘on xabarlar oqibatidir. **“Fake news”** atamasi ommaviy axborot vositalarini tanqid qilishda, masalan, AQSh prezidenti Donald Trampni, mamlakatning yadroviy qurol-yarog‘ini 10 marta oshirish yoki Rossiya Federatsiyasi prezidenti bilan til birlashtirish niyatlari haqida ma‘lumotlarni tarqalishini misol qilish mumkin. 2018-yilda xorij ommaviy axborot vositalarida “fake news” atamasi ko‘pincha AQSh prezidenti nomi bilan bog‘liq holda bosma va elektron nashrlarda qo‘llanilgan. Yangiliklar sifatida yashirilgan soxta xabarlarning ko‘pligi so‘nggi yillarda juda tanqidiy darajaga yetdi va bu hodisa jiddiy ilmiy tahlil talab qilmoqda.

Feyklar doimo ziddiyatlar asosida yaratiladi. Jahonda sodir bo‘layotgan urushlar, diniy va milliy ziddiyatlar, ichki siyosiy nizolarning barchasining asosida yolg‘on xabarlar yotib, ularni kelib chiqishiga turtki bo‘ladi. Masalan, rangli inqiloblarning sodir bo‘lishida muxolifat va uchinchi siyosiy tomonlar mavjud hukumatning “asl basharasi”ni xalqqa ko‘rsatish maqsadida internet hamda OAV orqali feyk xabarlar tarqatishdi.

2018-yilda xorijiy ommaviy axborot vositalarida “fake news” atamasi ko‘pincha AQSh prezidenti nomi bilan bog‘liq holda bosma va elektron nashrlarda qo‘llanilgan. Yangiliklar sifatida yashirilgan soxta xabarlarning ko‘pligi so‘nggi yillarda juda tanqidiy darajaga yetdi va bu hodisa jiddiy ilmiy tahlilga loyiqdir.

“Feyklarga qarshi kurashishda onlayn instrumentlarining ahamiyati” deb nomlangan uchinchi faslida mediasavodxonlik instrumentlari haqida so‘z boradi. Feyk yangiliklar asosan siyosiy yoki tijorat maqsadlarida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish uchun qo‘llaniladi. Biroq noto‘g‘ri hisobotlar, shuningdek, odamlarni tegishli veb-saytlarga a‘zo qilib reklamadan daromad olish maqsadida jalb qilish uchun klikbait (clickbait) ko‘rinishidagi shov-shuvli sarlavhalarning bir qismi sifatida ham qo‘llaniladi.

Storyful.com, FactCheck.org, PolitiFact.com yoki The Fact Checker kabi maxsus loyihalar va xizmatlar faktlarni tekshirish uchun juda qulay. Afsuski, ular ko‘proq ingliz tilida so‘zlashuvchi auditoriyaga mo‘ljallangan. Ammo ko‘p funksiyali vositalar ham mavjud. Xususan, feyk ma‘lumotlarni aniqlashda quyidagi fakt-checking instrumentlari auditoriyaga ma‘lumotlarni saralashga yordam beradi.

Eng oddiy yo‘li qidiruv tizimlariga (Yandex, Google) yangilik mavzusi yoki biror gapini kiritishdir. Suratlar – Google images yoki TinEye servislari yordamida tekshiriladi. Videoni skrinshot qilib, Google video orqali o‘tkazish. Shuningdek, TinEye dasturidan foydalanish. U Google video tamoyillari asosida ishlaydi.

Agarda feyk video Youtubeservisida joylashgan bo'lsa, siz Youtube ajratgan miniatyuralardan foydalanishingiz mumkin. Youtubedagi videoroliklar miniatyuralarini Youtube Data Viewer orqali tekshirish mumkin. Mazkur servis video qachon ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan vaqti va kunini ham bilish imkonini beradi. Plugin InVIDni kompyuterga o'rnatib videolarni doimo tekshirish mumkin.

Shubhali videolarda ko'rsatilayotgan joy, intershumlar kadr ortidagi ovozga e'tibor bering. Agarda videoda birorta jug'rofiy obyekt ko'rsatilsa, uni Google Street View orqali tekshirib ko'rib, joyni aniqlash mumkin. Agarda videoning boshlang'ich ovozi ustiga boshqa ovoz yoki musiqa yozilgan bo'lsa (masalan qo'rqinchli) yoki logotip juda yorqin bo'lsa, mazkur video soxtalashtirilgan bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ham ilk marotaba Saidova Muhayyo rahbarligi ostida "Mediasavodxonlik uyi" tashkil etilgan bo'lib, aholi o'rtasida axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida media texnologiyalari va texnikasidan foydalanish, tanqidiy, mantiqiy fikrlash, axborotni filtrlash ko'nikmalarini shakllantirish, raqamli texnologiyalar savodxonligi, kino savodxonligini oshirish maqsadida tashkil etildi.

Bundan tashqari, yana bir katta loyiha "Media To'qayzor" USAID va Internews hamkorligida maktab o'quvchilari va axborot savodxonligini oshirish uchun Tatyana Golubtsova tomonidan ishlangan uslubiy mobil o'yin yaratildi.

Dissertatsiyaning "**Mediasavodxonlikni oshirishda kontent vizuallashtirish va freyming samarasi**" deb nomlangan uchinchi bobining birinchi "Vizual Kontent mediasavodxonlikni shakllantirishda samarali vosita sifatida" faslida kontent vizuallashtirishda mediamatnlar mediasavodxonlikni shakllantirishda samarali vosita ekanligi tadqiq qilingan.

Hozirgi kunda zamonaviy mediata'limning ajralmas qismi bo'lgan mediasavodxonlikning rivojlanishi axborot texnologiyalarini takomillashishi bilan emas, balki yangi ilmiy ta'limiy axborot manbalarining ko'payishi bilan belgilanmoqda. Yoshlarning bilim olishlarida MySQL, EBSCO, eLibrary, JSTOR, ProQues, Emerald kabi "ilmiy ta'limiy resurslardan oqilona foydalana olishlarini axborot almashinuvining ijobiy tomonlari sarasiga qo'shishimiz mumkin"¹⁹.

Jamiyat modernizatsiyalashuvi jarayonida mamlakat yoshlari o'rtasidagi axborot almashinuvi madaniyati barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etadi. Yoshlarimizda axborot almashinish madaniyati hamda axborotdan unumli va tizimli tarzda foydalanish holatini bosqichma-bosqich sotsiologik tadqiq qilish, muammoni yechishni samarali yo'llari, vositalarini ishlab chiqish, taklif va tavsiyalar berish hayotiy zarurat ekanligidan dalolat beradi.

Insonning u yoki bu axborot kanaliga murojaat qilish maqsadi tushunarli. Tanlov xabarining to'laligi, manbaning ishonchliligi yoki qiziqarliligi va h.k. asosida qilinadi. Ammo bu yerda ham manbaning ishonchliligini chuqur o'rganish lozim.

¹⁹ Раҳимова Ш. Ёшларда ахборот алмашинуви маданиятини ривожлантириш истиқболлари // INFOLIB, 2020. – № 1. Ахборот-кутубхона журнали <https://einfolib.uz/>

“Onlayn makonda freyming va unga qarshi kurashishning samarali usullari” nomli ikkinchi faslida “freym” atamasi mohiyati va unga qarshi kurashish usullari haqida so‘z boradi. Freym mavzusi butun dunyo bo‘ylab nazariyotchilar tomonidan bir necha o‘n yillar davomida o‘rganilgan. G.Beytson, I.Xoffman, D.Shyon, M.Rayn, R.Benford, R.Shmidt, M.Kallon, D.Snou asarlarini bunga misol qilish mumkin. Zamonaviy rus tadqiqotchilari orasida V.S.Vaxshteyn asarlarida freymni qo‘llash jarayonlari chuqur nazariy tahlil qilingan²⁰. U freym nazariyasining rivojlanishida ikkita yo‘nalishni ajratib ko‘rsatadi: lingvo-kibernetik va sotsiolog-psixologik. Nazariyaning ikkala versiyasini shakllanishi bir-biridan mustaqil tarzda deyarli bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ldi.

“Freym”, “Freyming”, “Freym tahlili” kabi tushunchalar mazmunida o‘zgarishlar shakllangan bo‘lib, ulardan foydalanish olimning ilmiy yondashuvi va ixtisosligiga bog‘liq. Kadrlar nazariyasi fanlararo va ko‘p qirrali bo‘lib, harakatning kontekstualizatsiyasini aktuallashtiradi. Kadrlar xabar kontekstiga nisbatan mustaqil bo‘lgan metakommunikativ shakllanish sifatida talqinini G.Beytson taklif qilgan: “Freym” atamasi ham ba‘zi bir harakatning tuzilishini ko‘rsatish uchun ham, kundalik muloqotning tarkibiy xususiyatlarini aniqlash uchun ham xizmat qiladi. I.Xoffmanning talqiniga ko‘ra, freyming ongli ravishda tuzilmaydi, balki bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi va rivojlanadi²¹.

Freyming tushuncha sifatida obyekt bilan o‘zaro ta‘sir qilishning taksonomik va aniq usullaridir. Freyming, boshqa tomondan, tadqiqotchilarni jarayonga yo‘naltirilgan qoidalarga ishora qiladi. Ixtisoslashgan adabiyotlarda bu ikki yondashuv kamdan-kam hollarda birlashtiriladi, ammo freymni kengroq ma‘noda tushunishda bunday talqinlar aralashmasi sodir bo‘ladi. Kadrlarni tahlil qilish, shuningdek, o‘rganish mavzusiga qarab, faqat bitta yondashuvga e‘tibor qaratishi mumkin.

Ko‘pincha *feyklar* OAVda targ‘ibot orqali tarqatiladi. Bunda biror bir zararli g‘oyalar ommaga ochiq oydin yoki hufyona tarqatiladi va ommalashtiriladi. Mashhurlarning o‘limi yoki shunga yaqin ma‘lumotlarni misol qilish mumkin.

Feyklarning yana bir usuli *ig‘vogarlikdir*. Bunda ma‘lum guruhlar va shaxslar tomonidan davlatning konstitutsion tuzumiga yoki qonuniy asoslariga qarshi harakatlarni amalga oshirishga qaratiladi. Hozirgi bosqichda maqsadga erishish uchun asosiy vositalar sifatida OAV va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Soxta va yolg‘on xabarlar tarqatish “sindromi”, asosan, muhim siyosiy voqealar arafasida, ayni kunlarda yirik rezonansga sabab bo‘layotgan mavzular atrofida “xuruj qiladi”. Feykning inson ongiga ta‘sirini quyidagi ma‘lumotlardan ham ko‘rish mumkin: 2016-yil dekabrda AQSH prezidenti saylovlaridan so‘ng 64 foiz so‘ralganlar yolg‘on xabarlar tufayli voqelik haqidagi fikrlari chalkashib ketgani qayd etgan, 24 foiz so‘ralganlar saylovdagi tanlovlari to‘g‘ri bo‘lganiga amin emasligi qayd etilgan, 23 foiz respondentlar esa

²⁰ Яноу Д., Ван Хульст М. Фреймы политического: от фрейд-анализа к анализу фреймирования Социологическое обозрение, 2021. – № 1-2. – С. 10.

²¹ Internet World States: [//www.internetworldstats.com](http://www.internetworldstats.com)

ongli yoki ongsiz ravishda yolgʻon xabarlarini tarqatishda ishtirok etganlarini qayd etishgan²².

Tuhmat (boʻhton) usuli esa biror obyektни obroʻsizlantirish, shaʼnini bulgʻash maqsadida yolgʻon maʼlumotlarni tarqatish orqali qoʻllaniladi. “Yerqalampir, sarimsoqpiyoz, zanjabil koronavirusni davolaydi”. Faktcheker jurnalistlar eng koʻp olishgan feyklar sirasiga sarimsoqpiyoz, yerqalampir, zanjabil kabi mahsulotlarning koronavirusdan himoya qilishi haqidagi xabarlarini kiritishgan. JSST hech qanday oziq-ovqat mahsuloti virusdan himoya etmasligini maʼlum qildi. Davo sifatida tavsiya qilinayotgan ayrim mahsulotlar esa baʼzi odamlarda allergik reaksiya chaqirishi ham mumkin²³.

Shunga yaqin usullardan biri *diskreditatsiyalash* (obroʻsizlantirish)dir. Bunda omma orasida davlat rahbarlari, jamoat tashkilotlari, ayrim shaxslar obroʻsini, siyosiy yechimlar, tadbirlar ahamiyati salbiy nuqtai nazardan tushuntiriladi va ularga salbiy taʼsir koʻrsatiladi.

Qoʻshma Shtatlardagi navbatdagi prezidentlik saylov oldi kampaniyasi davrida nomzod Donald Tramp atrofida juda koʻp janjallar boʻlgan. Tadbirkor hayotidan yangi qiziq faktlarni nashr etishdan eʼtiborni chalgʻitish maqsadida milliy xavfsizlik boʻyicha maslahatchi lavozimiga nomzod Maykl Flinn ijtimoiy tarmoqda “Bolalar bilan jinsiy jinoyatlar” degan shov-shuvli sarlavha ostida demokratlarning faoliyatiga bagʻishlangan post eʼlon qiladi va shunday qilib u jamoatchilik eʼtiborini demokratik partiya aʼzolari atrofida tobora koʻpayib borayotgan janjalga qaratadi hamda Trampning axloqiy qiyofasi endi unchalik salbiy koʻrinmay qoladi. Keyinchalik bu xabar soxta ekanligi ayon boʻladi.

Omma diqqatini jalb etish ham samarali usullardan hisoblanadi. Bunda biror voqea, hodisa, ish yuzasidan huquqiy maʼlumot panada qoldiriladi va omma uchun keraksiz boʻlgan shov-shuvga sabab boʻladigan tadbirlar amalga oshiriladi. Bu usul odamdagi ijtimoiy dunyoqarashni asta-sekin oʻzgartirishga qaratilgan. Kavkaz xalqlarining Rossiya bilan koʻp asrlik va tinimsiz urushi haqidagi afsona tarqalmoqda. Nisbatan yaqin tarix faktlari ham buzilmoqda. Masalan, Ichkeriya veb-saytida joylashtirilgan maqolada quyidagicha yolgʻon berilgan edi: “Yangi Moskva paydo boʻlgunga qadar (1993-yil Konstitutsiyasi qabul qilinishidan oldin) 12 ta suveren davlat, jumladan, Checheniston Respublikasi ham tashkil topgan edi”²⁴. Bunday sanalar oʻyini va voqealar xronologiyasini buzish separatistlarga federal kuchlarning harakatlarini “bosqinchilik” sifatida tavsiflashga imkon beradi.

Mish-mish gaplarni tarqatish, yaʼni aslida mavjud boʻlmagan maʼlumotlarni tarqatish degani. Bu usul feyk tarqatuvchilar tomonidan davlat va jamiyatning biror bir sohasiga zarba berish maqsadida qoʻllaniladi:

“Firibgarlar ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy ravishda xabarlar yuborishni boshladilar”;

²² Абдурахмонова С. Fake news: сохта хабарлардан қандай сақланиш мумкин? // <https://kun.uz/> 25 апрель

²³ Алимов.Б.Иккисидан бирини танланг: пандемиями ёки инфодемия?. // <http://beruniyalimov.uz/archives/896>

²⁴ Лебедева Е.Г. Фейковые новости как инструмент манипулятивного воздействия в медиасреде // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн., 2021. – С. 81 // <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/>

